

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Mavlonova

Inklyuziv ta'lif o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari 214

Z.M.Xursanova

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni 219

A.B.Mirzayev

Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses 223

Sh.A.Pakirdinova

Blended learning texnologiyasining nazarij asoslari va uning ta'lif jarayonida ahamiyati 226

Sh.A.Pakirdinova

Comparative analysis of online and traditional classroom learning 231

M.M.Umaralieva

Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools 235

Z.N.Usmonov

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiysi 239

A.T.Akbarov

Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari 246

U.K.Rahmonov

Musiqa madaniyat darslarini olib borishda ta'lif beruvchining o'rni 252

U.K.Rahmonov

Musiqa darslarida zamonaliv texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati 256

V.Abdurakhmanov

"The challenges of teaching english to international students" 261

D.Y.Irmatov

Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lif yoshidagilar "Ontogonez"iga mansub bilimlar 265

Н.Собиров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин

Инновационная педагогическая деятельность 269

IQTISODIYOT**M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadiyeva**

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi 273

K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadiyeva

Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbliji va konseptual asoslari 276

FALSAFA**N.M.Axmadiyev**

Ijtimoy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfatlar to'qnashuvi 281

I.Tairov

Milliy davlatchilik asoslарини mustaxkam�ash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatlari 284

I.A.Nurmatova

Jamiyat ma'naviy muhitida oila institutining roli 289

SIYOSAT**B.P.Zokirov**

Jinoiy aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari 293

S.M.Xoliqov

Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari 301

B.P.Zokirov

Xorijiy ilg'or tajribalar jinoiy aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida 304

S.M.Xoliqov

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar 314



**JINOIY AKTIVLARNI QAYTARISH BO'YICHA UNIVERSAL VA MINTAQAVIY
XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI**

**УНИВЕРСАЛЬНЫЕ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ
ВОЗВРАТ АКТИВОВ, ПОЛУЧЕННЫХ ПРЕСТУПНЫМ ПУТЕМ**

**UNIVERSAL AND REGIONAL INTERNATIONAL LEGAL FRAMEWORK FOR THE
RETURN OF CRIMINALLY ACQUIRED ASSETS**

Zokirov Botirjon Pulatxujayevich
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro huquqiy hujjalr, BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, uni aktivlarni qaytarish bo'yicha normalari, Davlatlarning aktivlarni qaytarish bo'yicha mintaqaviy hujjalardan biri bo'lgan Yevropa Kengashining 27.01.1999 yilda Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik haqidagi Konvensiyasi, 07.10.2002 yildagi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish va huquqiy munosabatlarni tartibga solish haqidagi Kishinyov Konvensiyasi, ishtirokchi davlatlar o'tasidagi munosabatlarda aktivlarni qaytarish masalalari bo'yicha tavsiyaviy xarakterdagi STAR Tashabbusi va pullarni noqonuniy yuvilishiga qarshi kurashish bo'yicha FATF guruhining moliyaviy choralar ishlab chiqish bo'yicha tavsiynomalari haqida fikrlar yuritilgan.

Аннотация

В статье приведены международно-правовые документы по борьбе с коррупцией, Конвенция ООН против коррупции, ее нормы о возвращении активов, Конвенция Совета Европы об уголовной ответственности за коррупцию от 27.01.1999 г., один из региональных документов о возвращении активов государства, Кишиневская конвенция об обеспечении правовой защиты, содействие и регулирование правовых отношений, а также инициатива STAR рекомендательного характера по вопросам возвращения активов в отношениях между государствами-участниками и рекомендации группы ФАТФ, касающимся разработки финансовых мер по борьбе с незаконным отмыванием денег.

Abstract

The article contains international legal documents on combating corruption, the UN Convention against Corruption, its norms on asset recovery, the Council of Europe Convention on Criminal Liability for Corruption dated 01/27/1999, one of the regional documents on the return of state assets, the Chisinau Convention on Legal Protection, Promotion and Regulation of Legal Relations, as well as the initiative A recommendation document on asset recovery in relations between participating States and the FATF Group's recommendation, concerning the development of financial measures to combat illegal money laundering.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, xalqaro-huquqiy hujjalr, BMT, Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, aktivlarni qaytarish, Yevropa Kengashining Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik haqidagi Konvensiyasi, Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish va huquqiy munosabatlarni tartibga solish haqidagi Kishinyov Konvensiyasi, STAR Tashabbusi, FATF tavsiyanomalari.

Ключевые слова: Кишиневская конвенция о борьбе с коррупцией, международные правовые документы, ООН, Конвенция о борьбе с коррупцией, Возвращение активов, Конвенция Совета Европы об уголовной ответственности за коррупцию, оказание правовой помощи по гражданским, семейным и уголовным делам и регулирование правовых отношений, инициатива Star, рекомендации ФАТФ.

Key words: The Chisinau Convention on Combating Corruption, international legal instruments, the United Nations, the Convention on Combating Corruption, Asset Recovery, the Council of Europe Convention on Criminal Liability for Corruption, legal assistance in Civil, Family and Criminal Cases and regulation of legal relations, the Star initiative, FATF recommendations.

KIRISH

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha birinchi va yagona universal xalqaro huquqiy kuchga ega bo'lgan hujjal bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi bo'lib, u Bosh assambleyaning 2003-yil 31-oktabrdagi 58/4 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan.

Konvensiya aktivlarni qaytarishdagi hamkorlikning bir qancha aniq chora-tadbirlari va mexanizmlarini ko'zda tutuvchi qoidalarni o'z ichiga oladi, binobarin, ushbu qoidalalar turli holatlarda zarur bo'lgan aniq protsessual harakatlarni amalga oshirishda tezkorlik va samaradorlikni ta'minlaydi.

Avvalo, Konvensiya bir qator mexanizmlarni, shu jumladan, aktivlarni qaytarishda fuqarolik-huquqiy va jinoiy-huquqiy tartiblarni nazarda tutadigan asosli qoidalarni o'z ichiga oladi – bu mablag'larni va mol – mulkni tezkor kuzatish, muzlatish, musodara qilish va qaytarish uchun qo'llanilishi mumkin.

Aktivlarni qaytarish protsessual harakatlari Konvensiyaning V bobida tartibga solingen bo'lib, unda aktivlarni qanchalik tegishli ekanligiga qarab, so'ralayotgan davlatga qaytarish bilan bog'liq bir qator qoidalalar mavjud.

Konvensiyada belgilangan qoidalarga muvofiq, aktivlarni qaytarishning yangi mexanizmi ushbu jarayon uchun ish qo'zg'atishning ikki asosiy variantlarni ko'zda tutadi:

- 53-modda mol-mulkni fuqarolik tartibida musodara qilish yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri qaytarish chora-tadbirlarini tartibga soladi;

- 54 va 55-moddalarda esa qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha musodara qilish yuzasidan xalqaro hamkorlik uchun asoslar ko'rsatilgan[1].

53-moddaga ko'ra, ishtirokchi-davlat Konvensiyaga muvofiq tan olingen jinoyatlarni sodir etish natijasida olingen mol-mulkni qaytarish maqsadida boshqa davlat hududida fuqaroviy-huquqiy protsessual harakatlar bo'yicha ish qo'zg'atish to'g'risida iltimos qilishi mumkin. Konvensiyaga ko'ra, ishtirokchi-davlatlar fuqarolik huquqi bo'yicha jinoiy-protsessual harakatlarda bo'lgani kabi bir-birlariga yordam ko'rsatishlari tavsiya etiladi (43-modda, 1-band).

Konvensiyaning 54 va 55-moddalarida nazarda tutilgan musodara qilish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlik rejasiga ko'ra, musodara qilish to'g'risida so'rov olgan ishtirokchi davlat so'rov yuborayotgan davlatda chiqarilgan musodara qilish buyrug'ini darhol vakolatli organlarga yuborishi kerak (55/1(b)) yoki musodara qilish to'g'risidagi mahalliy sudning qarorini olish uchun ushbu so'rovni vakolatli organlarga yuborish va agar shunday qaror qabul qilingan bo'lsa, uni bajarishi lozim (55-mod.1-q.(a)).

Hamkorlikni yanada soddallashtirish uchun 55-moddada musodara qilish to'g'risida so'rovda bo'lishi kerak bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati berilgan (3b), shuningdek, hamkorlikni rad etish tamoyillari va mezonlari ko'rsatilgan (7b) bo'lishi lozim.

Aktivlarni qaytarish bo'yicha protsessual harakatlarning samaradorligi korruptsyaning og'ir oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlarni rag'batlantirishga samarali ta'sir etish bilan bir qatorda, korruptionerlarga noqonuniy aktivlarni yashirib bo'lmasligi haqida tushuntiradi. Shunga asosan, 51-moddaga muvofiq aktivlarni kelib chiqish davlatlariga qaytarish bilan bog'liq umumiyy qoidalari Konvensiyaning asosiy prinsipi ekanligini anglatadi.

Konvensiya aktivlarni qaytarish bo'yicha so'rov yuborgan ishtirokchi davlatga yordam ko'rsatish haqida qator qoidalarni nazarda tutadi. Xususan, u ishtirokchi davlatga huquqiy va boshqa choralarini ko'rish majburiyatini yuklaydi. Bunda o'zining vakolatli organlariga musodara qilingan mol-mulkni boshqa ishtirokchi davlat so'roviga asosan qaytarib berishga ruxsat beradi. (57-modda 2-b.)

Davlat mablag'larini noqonuniy talon-toroj etish holatlarda Konvensiyada ishtirokchi davlatlarga uning so'roviga muvofiq musodara qilingan mol-mulkni qaytarish belgilangan. Bunda so'rayotgan ishtirokchi davlatning uzil-kesil sud qarori mavjudligi hisobga olinadi (57-modda 3(a)-b.)

Konvensiya tarkibiga kiruvchi boshqa jinoyatlarni tergov qilish jarayonida quyidagi ikki qo'shimcha shartlardan biriga rioya qilgan holda mol-mulkni qaytarish mumkin:

- agar so'rayotgan ishtirokchi davlat so'ralayotgan ishtirokchi davlatga musodara qilingan mulkka avvaldan egalik qilish huquqining mavjudligini asosli ravishda isbot qilib bera olsa, va yoki;

- agar so'ralayotgan ishtirokchi davlat so'ragan ishtirokchi davlatga, musodara qilingan mol-mulkni qaytarish uchun asos sifatida yetkazilgan zararni tan olsa (57-m. 3-b(b)).

Boshqa barcha holatlarda so'ralayotgan ishtirokchi-davlat birinchi navbatda, musodara qilingan mulkni so'rayotgan davlatga yoki undan oldingi haqiqiy egasiga qaytarish yoki jabrlanuvchiga kompensatsiya to'lash masalasini ko'rib chiqadi (57-modda, 3-b(s)).

SIYOSAT

43-moddaga asosan, barcha ishtirokchi davlatlar Konvensiyada ko'rsatilgan jinoyatlarga bog'liq tergov ishlarini olib borish va jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan o'zaro hamkorlikni maksimal ravishda kengaytirishlari kerak. Ushbu moddada aktivlarni qaytarishga nisbatan, xususan, quyidagilar ko'zda tutilgan:

"Xalqaro hamkorlik masalalarida tegishli harakatni o'zaro jinoyat deb tan olish prinsipi talab qilinadi, so'ralayotgan ishtirokchi-davlat qonunchiligidagi tegishli harakatni jinoyat toifasiga kirish yoki talab qilinadigan atamalardan foydalanib tavsiflanganligidan qat'iy nazar, ushbu harakat jinoyat deb tan olinishi tamoyili mavjud. Agar har ikki davlat qonun hujjatlari muvofiq yordam so'ralgan holat yuzasidan harakat jinoyat deb topilsa, o'zaro huquqiy yordamni amalga oshiradi".

Shu ma'noda, Konvensiya oldingi xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlardan farqli ravishda, ko'pgina davlatlarning ichki qonunchiligiga va institutsional mexanizmlariga jiddiy o'zgarishlar kirgizishni talab qiladi.

Davlatlarning aktivlarni qaytarish, shuningdek, korruptsiyaga oid jinoyatlar natijasida orttirilgan daromadlarini qidirish, hibsga olish va musodara qilish majburiyatlarini o'z ichiga oluvchi mintaqaviy hujjatlardan biri Yevropa Kengashining 27.01.1999-yilda imzolangan Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik haqidagi Konvensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi[2].

Hamkorlik olib boruvchi davlatlar jinoyat sodir etish qurollari hamda vositalari, korruptsiyaviy huquqburzarliklar bo'yicha olingan mulklarni yoxud shunga teng qiymat daromadlarni aniqlash, qidirish, taqiqqa solish va musodara qilish ishlarini amalga oshiradi (21-modda 3-b., 23-m.).

Mazkur Konvensyaning alohida bobi jinoiy protsessual jarayonlardagi xalqaro hamkorlik doirasida umumiy qoidalar va ba'zi aniq choralarini tartibga soluvchi meyorlarni o'z ichiga oladi. Konvensiya ushbu jarayonlardagi xalqaro hamkorlikni maxsus tashkil etilgan markaziy organlar orqali amalga oshirilishini ta'minlaydi, shuningdek ushbu jarayonlarni soddalashtirilgan mexanizmlarini ham ko'zda tutadi. Unga muvofiq majburlov choralarisiz so'rovlar va xabarlar turli davlatlarning vakolatli organlariga o'zaro yetkazishlari mumkin (30-m.).

Konvensiya talablarini milliy Qonunchilik asosida amalga oshirish to'g'risidagi normalari asosiy hisoblanadi. Aks holda uning ishtirokchilari mazkur munosabatlarni qonuniy tartibga solish uchun qator choralar ko'rishi lozim bo'ladi. Bu dalillarni yig'ish, jinoyat qurollari (vositalari) hamda jinoyat natijasida orttirilgan daromadlar yoki musodara qilinuvchi jinoiy daromadlarga teng keladigan mol-mulkni topish, qidirish, hibsga olish va tortib olish kabi qator protsessual jarayonlarni amalga oshiradi (23-m. 1-q.) [3].

Konvensiyada bank siridan foydalanishga yo'l qo'yilmasligiga alohida e'tibor qaratilgan (26-m.3-q.) [4]. Mazkur vosita hamkorlikka to'sqinlik qiluvchi chora sifatida qaraladi. Bundan tashqari, Konvensiyaga a'zo davlatlar milliy huquqni muhofaza qilish organlariga tegishli tergov harakatlarini o'tkazishda bank, moliyaviy yoki tijoratga oid hujjatlarni taqdim etish yoxud hibsga olish haqida buyruq berish vakolatiga egadirlar (23-m. 2-q.).

Jinoyatlarning ayrim turlariga qarshi kurashishda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi xalqaro shartnomalarga qo'shimcha ravishda, jinoiy yo'l bilan topilgan aktivlarni xalqaro qidiruv, olib qo'yish va musodara qilish qoidalari, jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishni tartibga soluvchi bir qator ko'p tomonlama xalqaro-huquqiy hujjatlar mavjud.

Ushbu hujjatlar ichida fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish va huquqiy munosabatlarni tartibga solish haqidagi Konvensiya eng mukammal hujjatlardan biri deb hisoblanadi. (Kishinyov sh. 07.10.2002) [5].

Unda MDHga a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning ushbu sohasini tartibga solishga mo'ljallangan qator moddalar o'rinni o'lgan.

Bu, birinchi navbatda, "Mol-mulkni qidirish, (band solish) hibsga olish va musodara qilishda huquqiy yordam ko'rsatish", – deb nomlangan 104-moddada quyidagicha izohlanadi:

1. Shartnoma ishtirokchilari o'z qonunchiligi va mazkur Konvensiya qoidalariiga muvofiq, jinoiy yo'l bilan topilgan mol-mulk, pullar va qimmatbaho narsalarni (aktivlarni), shuningdek, aybdor (sudlanuvchi, mahkum)ga tegishli bo'lgan jinoiy daromadlarni qidirish, olib qo'yish va musodara qilish, jinoyatdan jabrlangan (da'vogar fuqarolar)ga zaranni qoplash, sudlarning jarimalarni undirish va musodara qilish haqidagi qarorlarini bajarish ishlarida bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatadilar.

2. Shu maqsadda, ishtirokchi tomonlarning vakolatli adliya (yustitsiya) organlari ichki qonunchiligidan kelib chiqqan holda, jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish topshirig'iga asosan, aybdor (sudlanuvchi, jazolanuvchi)ga tegishli bo'lgan jinoiy yo'l bilan orttirilgan mol-mulk,

pul va qimmatbaho buyumlarni aniqlashga qaratilgan surishtiruv, tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiradilar.

Ishtirokchi tomonlarning vakolatli adliya (yustitsiya) organlari bunday mol-mulk, pul va qimmatbaho buyumlarni aniqlaganda, ular bilan bog'liq har qanday operatsiyalar amalga oshirilishini oldini olish maqsadida, taqiq qo'yish yo'li bilan ularni butligini ta'minlaydilar.

3. Ishtirokchi davlatlarning vakolatli adliya (yustitsiya) organlari o'z yurisdiksiyalarda jinoiy yo'li bilan topilgan mol-mulk, pul va qimmatbaho buyumlarni aniqlaganda, ularni so'rayotgan davlatning vakolatli adliya (yustitsiya) organlariga ashyoviy dalil sifatida e'tirof etish va jinoyat ishiga qo'shish, keyinchalik jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash uchun qonuniy egalariga qaytarish maqsadida topshiradilar.

4. Tomonlarning vakolatli adliya (yustitsiya) organlari aybdor (sudlanuvchi, mahkum)ga tegishli bo'lgan jinoyat natijasida topilgan mol-mulk, pul va qimmatbaho buyumlarni, shuningdek, daromadlarga taqiq qo'yanlaridan so'ng so'rayotgan tomon sudining qonuniy kuchga kirgan hukmiga asosan, mazkur Konvensiyaning 58-moddasida ko'zda tutilgan qoidalarni hisobga olgan holda, yetkazilgan zararni qoplash va musodara qilish kabi harakatlarni bajarish uchun ularning saqlanishini ta'minlaydilar.

5. Sharhnomaga ko'ra, so'ralayotgan tomonning vakolatli adliya (yustitsiya) organlari, so'rayotgan ishtirokchi davlatning vakolatli adliya (yustitsiya) organlariga aybdor (sudlanuvchi, jazolanuvchi)ga tegishli bo'lgan jinoyat natijasida olingan mol-mulk, pul va qimmatbaho buyumlarni, shuningdek, daromadlarni topshirishni kechiktirishi mumkin. Bunda hali jinoiy javobgarlikka tortish masalasini yakunlanmagan yoki boshqa (uchinch) shaxslarning huquqlari to'g'risidagi nizolarni hal etish bilan bog'liq holatlar bo'lsa, yo'l qo'yilishi mumkin. Modomiki, Konvensiyaning "Sud qarorlarini tan olish va bajarish" to'g'risidagi 54-moddasiga muvofiq, chet davlat hududida aktivlarni qidirish, qo'lga olish va musodara qilish ishlarini olib borishda xorijiy davlat sndlari qarorlarining bajarilishi talab qilinadi. Unga ko'ra:

1. Har bir ishtirokchi davlat Konvensiyada ko'zda tutilgan shartlarga muvofiq, ishtirok etuvchi hamkorlikdagi mamlakat tomonidan qabul qilingan barcha normativ aktlarni tan oladi va bajaradi:

a) adliya organlarining fuqarolik va oilaviy ishlari, shunday ishlar bo'yicha boshqa davlat sndlari tasdiqlagan kelishuvlari va pul majburiyatlariga nisbatan notarial dalolatnomalarni;

b) sud hukmlari (qarorlari)ning jinoiy ishlar bo'yicha zararni qoplash, jarima undirish va musodara qilishga tegishli qismni;

v) sndlarning mol-mulkni, shu jumladan, bank hisoblaridagi pul mablag'larini da'veoni ta'minlash uchun taqiq qo'yish yuzasidan qarorlarini.

2. Mazkur moddaning 1-bandida ko'rsatilgan qarorlarni tan olish va bajarish so'ralayotgan tomonning qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zaro huquqiy yordam turlari (shakllar)ning boshqa alohida tafovutlarini hisobga olgan holda, chet el sndlari qarorlari ijrosining tartibi Konvensiyaning "Qarorlarni tan olish va bajarish haqida iltimosnoma" deb nomlangan 56-moddasida quyidagicha aks etgan, unga ko'ra:

"1.Qarorlarni tan olish va bajarish haqidagi iltimosnomani qaror ijob etilishi lozim bo'lgan tomonning vakolatli sudiga qaror kimning foydasiga hal qilingan bo'lsa, o'sha tomonдан beriladi. Shuningdek, bu ish birinchi instansiya qaror chiqargan sudga ham topshirilishi mumkin. Ushbu sud o'z qarorini tan olish va ijob etish haqidagi rasmiy xatni mazkur iltimosnoma bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega sudga yuboradi.

2. Iltimosnomaga ilova qilinadi:

a) qaror yoki uning tasdiqlangan nusxasi, shuningdek, qaror kuchga kirganligi va ijro ta'minlanishi lozimligi haqidagi rasmiy hujjat yoki uning qonuniy kuchga kirgunga qadar ham ijro etilishi lozimligi, agar bu qarorning o'zida rad etilmagan bo'lsa;

b) qaytarish bilan bog'liq jarayonlarda qatnashmagan taraf qabul qilgan hujatlari bo'lsa, ularni belgilangan qoida bo'yicha sudlovga yuborilganligi yoxud protsessual jihatdan imkoniyatlar chegaralangan taqdirda, belgilangan qoidaga ko'ra, qatnashmaganligi haqida axborot beruvchi ma'lumotlar;

v) jo'natish vaqtida qarorni qisman bajarilganini tasdiqlovchi hujjat;

g) shartnoma yurisdiksiyasida bo'lgan hollarda tomonlarning kelishuvini tasdiqlovchi hujjat;

SIYOSAT

3. Qarorni tan olish va bajarish to'g'risidagi iltimosnama hamda unga ilova qilingan hujjatlar so'ralayotgan tomonning tilida yoki rus tilida tasdiqlangan holda tarjima qilib yuboriladi.

Chet davlat hududida xorijiy davlat sudi qarorlarining bajarilishidagi qiyinchiliklar Konvensiyaning ma'lum kafolatlarini ta'minlovchi, "Sudlarning jarimalarni undirish, mol-mulkni musodara qilish va jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlar yuzasidan qarolarning bajarilishi" haqidagi 58-moddasida o'z aksini topgan:

1. So'rayotgan davlat sudining jarimalarni undirish, mol-mulkni musodara qilish yoki jinoyat natijasida olingan buyum va mol-mulkni davlat foydasiga undirish to'g'risidagi qarori so'ralayotgan davlat tomoni mazkur Konvensiyaning 8, 54, 56, 57, 59-moddalarida o'matilgan tartibda amalga oshiriladi.

2. Undirilgan jarima mablag'lari so'rayotgan tomonga yuboriladi.

3. Faqtgina so'rayotgan tomon musodara qilish haqidagi qarorni ko'rib chiqish huquqiga ega. Musodarani amalga oshirish harakatlari so'ralayotgan tomon qonunchiligi bilan belgilanadi.

So'ralayotgan tomon faktlarni tasdiqlash bo'yicha xulosalarni so'rovchi tomondan chiqarilgan hukm yoki boshqa sud qarorida bayon etilgan holatlardan kelib chiqib yoki hukm yuzasidan chiqarilgan xulosalarga asoslanadi.

Musodara qilingan yoki unga tenglashtirilgan mol-mulk to'liq yoki qisman musodara qilish haqida qaror chiqqan tomonga uzatilishi mumkin.

Mazkur Konvensiyaga muvofiq, har bir aniq vaziyatda so'rayotgan va so'ralayotgan tomonlar so'rayotgan tomonning musodara qilish haqidagi qarori ijrosini ta'minlashda mol-mulkni bo'lish haqida kelishib oladilar.

So'ralayotgan davlatning majburiyatları jinoiy ish bo'yicha yordam berishi, shuningdek, so'rayotgan davlat topshirig'iga binoan mulk va hujjatlarni qidirish, qo'lga olish va musodara qilish, shu bilan birga, ularni topshirish bilan bog'liq yordam berish majburiyati bu - suverenitet prinsipi, milliy yurisdiksiya va milliy manfaatlar ustuvorligining aks etilishidir.

So'ralayotgan davlatning jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishni rad etishiga oid xalqaro huquqiy hujjatlarning asosiy qoidalarini inobatga olgan holda, ko'p tomonlama shartnomalar amaliyoti har xil yo'llar bilan amalga oshiriladi: yuridik yordam to'g'risidagi ba'zi konvensiyalar va bitimlarda rad etish uchun asoslarning to'liq ro'yxati taqdim etiladi, boshqalarda esa tegishli hujjatlarni minimal darajada qisqartirishga harakat qilinadi.

Mazkur Konvensiyada xorijiy davlat sudlarining musodara qilishga oid qarorlarini ijro etishni rad etuvchi asoslarning to'liq ro'yxati o'z aksini topgan.

Konvensiyaning 59-moddasiga muvofiq, quyidagi hollarda bunday qarorning ijrosini amalga oshirilishi rad etilishi mumkin, agar:

a) qaror Konvensiya qoidalariga zid ravishda chiqarilgan bo'lsa;

b) so'rayotgan davlat qonunchiligiga muvofiq, hukm hali kuchga kirmagan va ijro etilishi lozim deb topilmagan hollarda (ba'zan istisno sifatida, qarorning ijrosi u kuchga kirkunga qadar ham amalga oshirilishi mumkin);

v) so'ralayotgan davlat qonunchiligiga muvofiq qarorning ijrosi muddati o'tgan bo'lsa.

g) qarorning tan olinishi va ijro etilishi talab qilinayotgan davlat siyosatiga zid bo'lsa.

Bundan tashqari, Konvensiyaning 112-moddasiga muvofiq, xorijiy davlat sudlari hukmini, shu jumladan, musodara qilish yuzasidan, tan olish va ijro etish quyidagi holatlarda rad etilishi mumkin, agar:

a) muddat o'tganligi sababli jazoni ijro etish mumkin bo'lmasa yoki sudlanuvchining ishtirokisiz sirdan chiqarilgan hukm, shuningdek boshqa qonuniy asoslarga ko'ra ijro etish mumkin emas;

b) so'ralayotgan davlat hududida shaxs qilmishi uchun jazo olgan yoki oqlangan yoxud jinoiy ish qonunda belgilangan tartibda tugatilgan, shuningdek, agar shaxs so'ralayotgan davlat vakolatli organi tomonidan jazodan ozod qilingan bo'lsa;

v) so'ralayotgan davlatning qonunchiligiga ko'ra so'rayotgan davlat hududida tayinlangan jazo bo'yicha javobgarlik mavjud bo'lmasa;

g) shaxsni jazolash uning irqi, jinsi, e'tiqodi, etnik kelib chiqishi va siyosiy qarashlari bilan bog'liqligi to'g'risida aniq sabablar bo'lsa.

Jinoyat protsessi sohasida jinoyat natijasida qo'lga kiritilgan mol-mulkni musodara qilish yuzasidan xalqaro hamkorlik masalalarini ko'rib chiqayotganda, jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro

huquqiy yordamning bunday mustaqil turini narsalar (daliliy ashyolar) va hujjalarni, keyinchalik musodara qilinadigan obyektlarni topshirish harakatlaridan aniq ajrata bilish lozim.

Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlari haqidagi Konvensiyaning 103-moddasiga muvofiq, (Kishinyov sh., 07.10.2002y.) huquqiy munosabatlari va huquqiy yordam masalalarida ishtirokchilar so'rovlargaga asosan bir-biriga quyidagilarni topshirish majburiyatlarini oladilar:

- jinoyat sodir etishda ishlatilgan vositalar, jumladan, sodir etish qurollari, orttirilgan mulklar hamda sodir etgan huquqbazarligi uchun mukofot yuzasidan taqdim qilingan qimmatliklar yoxud korrupsiyon va boshqa noqonuniy harakatlar natijasida egallangan barcha narsalar;

- jinoiy ishda ashyoviy dalil bo'la oladigan predmetlar. Bu predmetlar jinoyatchining o'limi, qo'chib ketishi yoki boshqa holatlari tufayli uni berish imkonini bo'lmaganda ham topshiriladi.

Agar so'ralayotgan davlatga bu predmetlar jinoyat ishida ashyoviy dalil sifatida kerak bo'lsa, ularni topshirish muddati to ish yakunlanganga qadar uzaytirilishi mumkin.

Boshqa xalqaro-huquqiy hujjalarda ham ko'zda tutilganidek, bunday holatlarda topshirilayotgan predmetlarga nisbatan uchinchi shaxs huquqlari o'z kuchini yo'qotmaydi. Ish yakunidan so'ng bu predmetlar, agar oxirgisi ulardan voz kechmasa, qaytarishsiz shartda yuborilgan tomonga berilishi kerak.

Xalqaro-huquqiy hujjalalar meyorlari majmuasidan kelib chiqib, kelgusida musodara qilish maqsadida mol-mulkni olib qo'yish va hisoblarni muzlatib qo'yish haqidagi so'rovning bajarilishi uchun, qoidaga asosan, so'rayotgan davlat noqonuniy mol-mulk (hisob raqamlari) va jinoiy faoliyat o'rtaidiagi sababiy bog'liqliknini asoslab berishi kerak. O'z navbatida, so'ralayotgan davlatdan, jinoiy daromadlarga qarshi kurashishdagi hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun moliyaviy operatsiyalar haqida shaxsning bank yoki boshqa moliya tashkilotlari to'g'risida tegishli ma'lumot olish imkonini etiladi.

Ma'lumki, jinoiy yo'l bilan orttirilgan pul mablag'lari va mol-mulk, shuningdek, ashyoviy dalillarni qidirish va taqiq qo'yishda, shuningdek, tintuv olib qo'yish va ma'lumotlarni yig'ish hamda ularni so'rayotgan davlatga topshirish kabi protsessual harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holat, xalqaro-huquqiy hujjalardan kelib chiqqan holda, bu faoliyatning bir qancha o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi.

Yuqorida berilgan xalqaro konseptual meyorlardan tashqari ishtirokchi davlatlar o'rtaidiagi munosabatlarda aktivlarni qaytarish masalalari bo'yicha tavsiyaviy xarakterdagи STAR Tashabbusi va pullarni noqonuniy yuvilishiga qarshi kurashish bo'yicha FATF guruhining moliyaviy choralar ishlab chiqish bo'yicha tavsiynomalaridan foydalananiladi.

Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik qarshi kurash boshqarmasi 2007-yilda talon-toroj etilgan aktivlarni qaytarish bo'yicha BMTning korrupsiya qarshi konvensiyasini tashabbusini qo'llab-quvvatlashdi hamda ushbu xalqaro tashabbusni amaliyotga tadbiq etish masalalari boshlaganligini e'lon qildi (Star tashabbusi).

Ushbu tashabbus "korrupsiya natijasida orttirilgan daromadlarning yashirin chiqib ketishiga qarshi kurashish va aktivlarni qaytarib olishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash" uchun tadbiq etilgan. Bu harakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarda va ayrim yurisdiksiyalarda aktivlarni qaytarish yo'lidagi to'siqlarni o'rganish bo'yicha tegishli imkoniyatlarni yaratishni (capacitybuilding) o'z ichiga oladi[6].

StAR tashabbusi – bu Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha boshqarmasi (UNP OON) o'rtaida va korrupsiya aktivlar yashirish manzillarini yo'q qilish bo'yicha norasmiy yuridik sheriklikni qo'llab-quvvatlaydi. Star tashabbusi rivojlanayotgan davlatlar va moliyaviy markazlar uchun korrupsiyanadan olingan daromadlarni legallashtirishni oldini olish va talon-toroj etilgan aktivlarni tizimli va o'z vaqtida qaytarishini ta'minlashga qaratilgan.

StAR tashabbusi quyidagi yo'nalishlarda o'zaro ko'makni nazarda tutadi:

- noqonuniy o'zlashtirilgan aktivlarni qaytarish tamoyillari to'g'risida ma'lumot to'plash va tarqatish, shuningdek, ushbu jarayonlarni soddalashtirishga ko'maklashish choralarini ko'rish;
- aktivlarni qaytarish yuzasidan davlat ichki mexanizmlarini yaratish;
- milliy hokimiyat organlarining talabiga binoan qaytarilgan aktivlarni ishlatishini kuzatish.

Unga ko'ra, barcha davlatlarda aktivlarni qaytarishga to'sqinlik qiluvchi noqulayliklarni bartaraf etish, jabr ko'rgan mamlakatga orttirilgan noqonuniy daromadlarni qaytarish yuzasidan

SIYOSAT

qulayliklar yaratish hamda orttirilgan jinoi daromadlarni xatlash, yuqori darajada vakolatli shaxslar tomonidan “offshor” hududlarga mulklarni olib chiqilishini cheklashdir.

Shunga muvofiq, tashkil etilgan choralar doirasida barcha mamlakatlarga tajribali yetakchilar tomonidan amaliy ko'mak berilmoqda, korrupsiyaga qarshi kurash va talon-toroj etilgan aktivlarni qaytarish bo'yicha ijobjiy xalqaro amaliyat va ilg'or tajribalarni mustahkamlash bo'yicha uslubiy vositalar ishlab chiqilmoqda[7].

Tashabbus doirasida chiqarilgan muhim uslubiy hujjatlardan biri bu Jahon banki tomonidan tayyorlangan “Talon-toroj etilgan aktivlarni qaytarish: fuqaroviyl protsessida aktivlarni musodara qilish bo'yicha qo'llanma” deb nomlangan tahliliy ko'rsatmalardir (bundan buyon matnda ko'rsatmalar deb yuritiladi) [8]. Nashrning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarga korruptionerlar tomonidan noqonuniy o'zlashtirilgan va mamlakatdan olib chiqilgan aktivlarni qaytarishga yordam berishdir. Ushbu hujjatda jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan turib, musodara qilish imkoniyatining yaratuvchi choralar, mutaxassislarning tavsiyaviy fikrlaridan iborat va bir nechta huquqiy ahamiyatga ega bo'lган (36 ta) tezkor choralarini nazarda tutuvchi qoidalar ko'rsatilgan bo'lib, barcha sharoitlarda hamda barcha mamlakatlarda aktivlarni qaytarish yuzasidan imkoniyatlarni to'liq qo'llash yuzasidan tavsiyalarni tashkil qiladi.

Ushbu qo'llanmadagi tavsiyalar ijobjiy amaliy ahamiyat kasb etadi. Qo'llanma uch qismidan iborat:

Birinchi qismida aktivlarni talon-toroj etish muammosi, uning chet eldan qaytarilishi haqida qisqacha ma'lumot berilgan, shuningdek, xalqaro hamjamiyat tomonidan ushbu muammoni hal qilish bosqichlari (Korupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi va StAR tashabbusining qabul qilinishi) ko'rsatib o'tilgan.

Qo'llanmaning ikkinchi qismida fuqarolik tartibida aktivlarni musodara qilishning 36 asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, ular quyidagi mavzular bo'yicha guruhlangan: “Asosiy prinsiplar”, “Aktivlarni aniqlash va fuqarolik tartibida musodara qilish qo'llaniladigan huquqbazarliklar”, “Tergov harakatlari va aktivlarning saqlanishini ta'minlash bo'yicha choralar”, “Aktivlarni qaytarish va xalqaro hamkorlik”, shuningdek fuqarolik tartibida musodara qilish yuzasidan turli mamlakatlar qonunlaridan olingan misollar bilan keltirilgan.

Qo'llanmaning uchinchi qismi musodara qilishning o'zgacha imkoniyatini, ya'ni jinoyat natijasida orttirilgan buyumlar va mulkka nisbatan qo'llash hamda har xil davlatlar qonunchiligidagi xalqaro hamkorlikni olib borishga qaratilgan.

StAR tashabbusi korrupsiyadan orttirilgan aktivlarni aniqlash, saqlash qaytarish uchun KQKKning 5-bobini va boshqa xalqaro standartlarni kuchaytirish va samaradorligini oshirish tarafdiridir. BMTning ustuvor imperativ xalqaro huquqiy normalariga a'zo davlatlar, shu yo'nalishdagi xalqaro tashkilotlar hamda boshqa ko'plab vazifalarni olib boruvchi dunyo miqyosidagi harakatlar hamkorligida, kollektiv hamda kelishuvchan choralarini amalga oshiradi va barcha davlatlarga jinoyatlar natijasida orttirilgan daromadlarni qaytarish bo'yicha universal tizimlarni hayotga tadbiq etishga ko'mak beradi[9].

Talon-toroj etilgan aktivlarni qaytarish muammosi bilan bevosita bog'liq bo'lган xalqaro moliyaviy standartlardan biri bu jinoi daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha FATF tavsiyalari hisoblanadi.

Jumladan, 1989 yilda bo'lib o'tgan “Katta yettilik”ning Parij sammitida Moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashuvchi Maxsus guruh (Financial Action Task Force on Money Laundering (FATF)) [10] tashkil qilindi. Mazkur tashkilotning vazifasi sifatida bank va moliyaviy tashkilotlar tomonidan sodir qilinayotgan moliyaviy jinoyatlarni aniqlash, qarshi kurashishdagi operativ tadbirlarni kompleks tahlil qilish, normativ bazani doimiy ravishda o'rganib borish, noqonuniy harakatlarning oldini olishga qaratilgan mexanizm joriy qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish belgilab olindi. Bundan tashqari, tashkilot tomonidan imtiyozli soliq rejimini taqdim qiluvchi offshor hududlar yuzasidan xalqaro standartlar ishlab chiqilib, ushbu normalarga rioya qilmagan davlatlarga nisbatan cheklov va boshqa turdag'i ma'muriy choralarini qo'llab borish taklif qilinadi.

FATF tomonidan noqonuniy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi 40 ta tavsiya ishlab chiqilgan bo'lib, ularni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

noqonuniy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish mexanizmini takomillashtirish;

xatlov amaliyotini samarali amalga oshirish;

preventiv choralarni ishlab chiqish;
shaffoflik va "benefitsiar" mulkdorni aniqlash dasturlarini ishlab chiqish;
mas'ul vazirlik va idoralarning huquq va majburiyatları;
xalqaro hamkorlikni takomillashtirish.

FATF doimiy ravishda BMT bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Yuqoridagi jinoyatlarni oldini olish bo'yicha O'zbekistonda tashkil etilgan mexanizmni baholash yuzasidan belgilangan davrda o'rganishlar olib boradi.

Bugungi kunga kelib, FATFga 37 dan ortiq mamlakatlar a'zo bo'lib, uning terrorizmni moliyalashtirish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo'yicha "40+9" tavsiyalari asosiy qo'llama hisoblanadi.

Ko'rinish turibdiki, FATF tavsiyalarida talon-toroj etilgan aktivlarni aniqlash choralarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha BMTning KQKK yoki StAR Tashabbusi tavsiyalariga qarshi ko'rsatmalar mavjud emas.

Jinoiy aktivlarni milliy yurisdiksiyaga qaytarish bo'yicha yuqorida ko'rib chiqilgan xalqaro-huquqiy hujjatlar va FATF tavsiyalariga asosan, ushbu huquqiy asoslarning milliy qonunchilikka xos jihatlarini O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligiga implementatsiya qilish natijasida, jinoiy protsessual va boshqa qonun hujjatlarini takomillashtirish masalalari haqida fikr yuritish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2001-yil 26-28-mart kunlari Vena shahrida bo'lib o'tgan pul mablag'larni noqonuniy o'tkazish va bunday mablag'larni kelib chiqqan mamlakatlarga qaytarish bo'yicha ekspertlar yig'ilishining hisoboti; Korrupsiya qarshi kurash bo'yicha maxsus materiallar UNODC tomonidan Korrupsiya qarshi global dastur doirasida ishlab chiqilgan, 2002 yil, 40 mexanizm (O'zaro huquqiy yordam); Kelib chiqishi noqonuniy bo'lgan mablag'larni o'tkazish bo'yicha global tadqiqotlar, Korrupsiaviy harakatlardan olingan mablag'lar (A/AC.261/12),. 33–36 pp; va BMT hujjati A/58/125, 16-band.
2. Yevropa kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik haqidagi Konvensiyasi" (27.01.1999 y. Strasburg shahrida imzolangan) /http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_121544/
3. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=CELEX%3A32003F0577>
4. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=CELEX%3A32006F0783>
5. Sodrujestvo. Informatsionniy vestnik Soveta glav gosudarstv i Soveta glav pravitelstv SNG. -2003. - № 2(41). - S. 82 - 130
6. [http://siteresources.worldbank.org/EXTSARI/Resources/5570284-1257172052492//StAR_Progress_Report_\(October_2009\).pdf](http://siteresources.worldbank.org/EXTSARI/Resources/5570284-1257172052492//StAR_Progress_Report_(October_2009).pdf)
7. <http://star.worldbank.org/star/>
8. Grinberg T. i dr. Vozvrat poxishennix aktivov: rukovodstvo po konfiskatsii aktivov vne ugolovnogo proizvodstva. M., 2010. S. 15.
9. StAR International Standards. URL: <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/StAR.html>
10. <http://www.fatf-gafi.org/>